«QO'QON ADABIY MUHITI VA UCHINCHI RENESSANS»

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari



ISBN 978-9943-7855-8-8

FARG'ONA
nashriyoti

«QO'QON ADABIY MUHITI VA UCHINCHI RENESSANS»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari



Qaro niyat ila hech zo‘rlama farqi qarolarni. [2, 88]

Ya’ni qora soch orasidan tushgan tekis yo‘l, qaro farq ham sen uchun oq yo‘l tilar, shunday ekan ularga nisbatan hech qachon qora niyatda bo‘lma. Bu bilan shoira bizga bor mehrini bergan onalarimiz sochlari, qarolik zamiridagi farq ham biz uchun oq yo‘l tilashini uqtiradi. Bundan tashqari qora soch, qora qosh, qora xol go‘zallik belgisi ekanligi asarda alohida ta’kidlanadi. Biz qora deb salbiy xulosada bo‘ladigan tushunchalardan shoira falsafiy jihatdan ezguliklarni izlaydi. Ushbu xulosalar o‘quvchilarning Anbar Otinning ijodiga, balki mumtoz adabiyotga bo‘lgan qiziqishini o‘stiradi.

“Qo‘qon adabiy muhiti o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixining alohida bir bosqichini tashkil etadi. Uning vujudga kelishi, rivojlanishi va yaxlit bir adabiy muhitga aylanishi Qo‘qon xoni Amir Umarxon nomi bilan bog‘liq”. [3, 10] Qo‘qon adabiy muhiti vakillarini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlagan, ularga ijod maydonini yaratib bergan, albatta, Amir Umarxondir. Adabiyot tarixida ayol ijodkorlarning Zulfiyaxonimgacha uzilib qolishining o‘zi ham yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi bo‘lgan, adabiyotga shoiralarni yetkazib bergan, o‘zi ham ustoz shoirlar izidan borib qalam tebratgan ijodkor Amiriy ijodi nima uchun maktab darslarida o‘rganilmaydi? Maktab adabiyot darsliklarida Qo‘qon adabiy muhitining vakillari salmoqli o‘rin tutar ekan-u, nima uchun o‘quvchi shu muhit asoschisini tanimaydi? Bizningcha, bugungi kun o‘quvchisi Amiriy ijodini o‘rganishga haqli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahmedov S, Qosimov B, Qo‘chqorov R, Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2020.

2. Anbar Otin. She’rlar risola. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1970

3. Zebo Qobilova. Amiriy she’riyati. – Toshkent: FAN, 2010.

AMIRIY ASARLARI TARJIMASIDA MILLIY-MADANIY FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ADEKVATLIK MASALALARI (ingliz tiliga tarjimasi misolida)

Muqaddas OQMAMATOVA,
ToshDO‘TAU tadqiqotchisi
(O‘zbekiston)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yirik vakillaridan biri Amiriy g‘azallari misolida milliy-madaniy frazeologik birliklarni ingliz tiliga tarjima qilish borasidagi adekvatlik masalalari tahlili xususida fikrlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: adekvat, ekvivalentlik, muqobillik, asliyat, badiiyat, tasvir vositalari, maqta’, taxallus, frazeologik birliklar, sinonimlar.

Аннотация:

В статье анализируются вопросы адекватности при переводе национально-культурных фразеологизмов на английский язык на примере

стихотворений Амира, одного из крупнейших представителей узбекской классической литературы.

Ключевые слова: адекватность, эквивалентность, альтернатива, оригинальность, искусство, средство изображения, фразеологизмы, синонимы.

Annotation:

In this article, the analysis of the issues of adequacy are discussed in the translation of national-cultural phraseological units into English on the example of poems of Amir, one of the largest representatives of Uzbek classical literature.

Key words: adequacy, equivalence, alternative, originality, art, means og image, praise, nickname, phraseological units, synonyms.

Til – har qanday millatning, xalqning ma’naviyati, turmush tarzini, borligini ko‘rsatuvchi eng muhim bosh omildir. Bu ne’mat insonning insoniy tafakkurini namoyon etuvchi mo‘jizadir. “Odam bolasi dunyoni o‘z tiliga uyg‘un tarzda ko‘radi, o‘z tilining qat’iy ohanglari o‘zanlaridan chiqib ketmagan holda eshitadi, o‘z tilining azaliy va muntazam intizomiga muvofiq idrok qiladi. Shuning uchun til bemisl tilsimdir”. [1,98]

Darhaqiqat, ana shu tilsimning sir-asrorlari, bor mahobati, shaksiz, badiiy asarlarda o‘zi bor bo‘yi bilan ko‘rinadi. Ijodkor qanchalik iste’dodli bo‘lsa, uning yozgan asarlari ham shunchalik betakror bo‘ladi. Ijodkor o‘z ona tilini qanchalik mukammal bilsa, bu jihat uning asarlarida jilolanib boraveradi, tilsimlarini ochaveradi.

Qo‘qon adabiy muhitining o‘zbek adabiyoti xazinasidagi o‘rni juda katta. Bu adabiy muhitda kamol topgan ko‘plab ma’rifatparvar ijodkorlarni bilamiz. Ulardan: Furqat, Muqumiy, Zavqiy, Uvaysiy, Gulxaniy, Maxmur, “Rojiy Ho‘qandiy, Furbat, Yusufqori Muntazir, Sadoyi…” [2, 67]. Bu nomlarni hali uzoq davom ettirish mumkin. Qo‘qon ana shunday iste’dod sohiblarini yetishtirgan ulkan tarixiy shahar.

Ana shu muhitda kamol topgan, hatto hukmronlik qilgan, Qo‘qon adabiy muhitining eng nozikta’b, iqtidorli vakili, shoh va shoir Amir Umarxon, ya’ni Amiriy ijodi misolida shoir she’rlarini ingliz tilida tarjimasi borasida milliy-madaniy frazeologik birliklar misolida asarlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Chunki oldimizda mumtoz adabiyotimizning yuksak namunalari dunyo adabiyoti yuzini ko‘rishi uchun, eng avvalo, ularning asarlarini dunyo tillariga tarjima qilishdek mas’uliyatli vazifa turibdi. Adekvatlik tushunchasi borasida fikrlashar ekanmiz, bu termin lotin tilidan olingan bo‘lib, “o‘xshash”, “to‘la mos”, “bir xil” kabi ma’nolarni anglatadi. Tarjima borasida adekvat so‘zni topish tarjimaning asliyatga mos kelishida yordam beradi. Adekvat tarjima masalalarida tadqiqotlar olib borgan olimlardan A.N.Feorov, Y.L.Reskerlarning ta’kidlashicha, “eng muqobil va asliyatga xos tarjima hisoblanar ekan”.

Tarjima nazariyasining bilimdon olimlari A.Shveytser, L.Barxudarov hamda V.Komissarovning aytishlaricha esa: “Adekvat tarjima ekvivalentlikning oliy darajasi bo‘lib hisoblanar ekan.”[3, 47]

Amiriy ijodini kuzatar ekanmiz, shoirning o‘ziga xos obraz yaratish mahorati beixtiyor e’tiborimizni tortib, hayratimizni oshiradi. Shoir yaratgan tasviriy vositalar, badiiyat zamirida ona tilimizning eng nozik jihatlari jilvalanadi.

Qoshlaringni vo‘smadin rangin ko‘rub aydi Amir:

Obro‘ topdi, yoshil to‘n kiydi ehsoningda qosh. [5, 79]

G‘azalning maqta’sidan olingan ushbu baytda shoir Amir taxallusini qo‘llash barobarida qoshga o‘smaning qo‘yilishi orqali yor qoshiga qilgan ehsoni o‘sma bilan unga yashil to‘n kiydirib, qoshining obro‘sini ko‘tardi, deydi.

Yashil rang islom dinida ham farishtalar kiyguvchi kisfat rangi deb qaraladi. O‘smaning ham rangi yashil bo‘lib, yor qoshida o‘sma qolishi uning, ya’ni qoshning obro‘yini yanada ko‘tardi.

Bunday mumtoz g‘azallar tarjimasida milliylikni ifodalovchi o‘sma o‘simligi haqida boshqa til vakillari qanchalik tasavvurga egaligini hisobga olgan holda, mazkur rangning qiymati, ya’ni obro‘ keltirishini qanday tushuntirish lozim. Shuningdek, she’rda qofiya masalalarini hisobga olish kerak.

Xuddi shu bir bayt tarjimasini ingliz tilida berishga harakat qilamiz:

Amir saw the colour of your eyebrow liner and he said:

With your charity, your eyebrows turned green and beatified.

“Obro‘ topmoq” frazeologik birligi milliy xarakter kasb etishi barobarida Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati" kitoblarida quyidagicha izohlanadi:

“Obro‘ topmoq” kim nufuzga molik bo‘lmoq. Antonimi: obro‘sini yo‘qotmoq, obro‘ tushdi. “Obro‘ orttirmoq (ayn. obro‘ ko‘rmoq. Obro‘yi bir (yoki uch) pul bo‘ldi ayn. obro‘yi ketdi” kabi ta’riflar bilan keltiriladi. [4, 75] Ingliz tilida mazkur frazeologik birlikning bir nechta adekvatlarini keltirish mumkin:

1. “to gain prestige” iborasi ingliz tilida “respect and admiration given to someone or something, usually because of a reputation for high quality, success or social influence” ya’ni izohni o‘zbek tiliga tarjima qiladigan bo‘lsak, “kimgadir yoki biror narsaga hurmat va hayrat, odatda yuqori sifat, muvaffaqiyat yoki ijtimoiy ta’sir obro‘si tufayli” biror maqomga ega bo‘lish degan ma’noni anglatadi.

2. “enjoy prestige” iborasi ham yuqoridagi ibora bilan ma’no jihatdan bir xil hisoblanadi.

Yomon ko‘z tegmasun husnungga, ey mahbublar shohi,

Amir ash’oridin bu ruq’ani bo‘ynungga tummor et. [5, 79]

Bayt mazmuni: sevimlilar shohisanki, husningga yomon ko‘z tegishi mumkin. Shuning uchun Amiriyning (ya’ni oshiqning) she’ridan xat yoki nomani bo‘yingga tumor qilib osib olgin, toki hatto oshiqning ham ko‘zi unga tegmasin.

Biz tahlil uchun tanlagan baytlar, asosan, maqta’lardan olingan bo‘lib, unda lirik qahramonning holati eng kulminatsion nuqtaga chiqqan holatda tasvirlanadi.

Avvalo, “ko‘z tegmoq” frazeologik birligining milliylik xarakteridan kelib chiqib o‘z ona tilimizdagi izohlariga e’tibor qarataylik: “ko‘z tegdi kimga yoki nimaga ko‘zikmoq. Varianti: ko‘z(i) tegdi kimning kimga yoki nimaga. Ko‘z tegmoq. Xurofiy tushunchaga ko‘ra, birovning nazari tushishi sababli og‘rimoq, ziyon yetmoq”. [4, 75] Ingliz tilida bu frazeologik birlikni aynan tarjimasi yo‘q. Chunki ingliz millatida birovning nazari tushishi oddiy hol hisoblanib, ularda

og‘rib qolish degan tushuncha mavjud emas. Lekin biror narsa yoki odamga “ko‘z-quloq bo‘lib turmoq” iborasi ingliz tilida mavjud bo‘lib, “to keep an eye on somebody or something” deya aynan tarjimada izohlangan. Bundan ko‘rinadiki, ba’zi iboralar boshqa bir tilda o‘z tarjimasiga ega emas.

Amiriyning badiiy mahorati, ona tilimizning eng nozik jihatlarini ham yaxshi bilishi uning asarlarida chiroyli tarzda o‘z aksini topgan.

Ey sarvqadlar sarvari, istar Amir iqbolingiz,
Boshimg‘a savdo soldingiz, bo‘lsun salomat boshingiz. [6, 138.]

Yuqoridagi baytda “boshingga savdo solmoq” frazeologik birligi izohli lug‘atlarda quyidagicha izohlanadi: “boshga solmoq” og‘ir qiyinchilikka, azobga duchor qilmoq”. [7, 332]

Demak, “boshga savdo solmoq” frazeologik birligi azobga duchor etmoq ma’nosini anglatar ekan, lirik qahramon unga azobni ravo ko‘rgan mashuqasiga omonlik tilaydi, ya’ni boshing omon bo‘lsin, deydi.

Amiriy g‘azallari o‘ziga xos obrazlar silsilasiga ega. U g‘azallarida frazeologik birliklardan o‘z o‘rnida, unumli foydalanadi. Filologiya fanlari doktori Zebo Qobilovaning “Oltin beshikda ulg‘aygan siymo” maqolasi [5, 90-97]da shoir shaxsiyati va ijodi borasidagi bir qancha munozarali jihatlar yoritilsa-da, ammo biz ushbu shoirning shoirlik mahorati borasida, uning milliy-madaniy frazeologik birliklarni qay tarzda qo‘llaganligiga ko‘proq urg‘u berdik va bevosita bu til birliklarining ingliz tilidagi adekvatlari, ekvivalentini tanlash borasida mulohazalarimizni berdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudov N. Bemisl tilsim. – T.: Tafakkur. 2021, 3-son.
2. Asrlar sadosi. – Toshkent:1982.
3. Komissarov V.N. Tarjima nazariyasi. M:Oliy shk. 1990
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.:1978.
5. Qobilova Z. Oltin beshikda ulg‘aygan siymo. – T.:Tafakkur, 2020. 3-son.
6. Amiriy. Qoshingga tekkizmagil qalamni. Toshkent: 2008.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I tom.

PO‘LOTJON DOMULLA QAYYUMOVNING “TAZKIRAI QAYYUMIY” DAGI AYRIM OYKONIMLAR XUSUSIDA

Sofiya USMONOVA,
Qo‘qon DPI, o‘zbek tili kafedrasi
katta o‘qituvchisi,
Gulira’no MURODOVA,
Dang‘ara tumani 23-IDUMI o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqola Po‘lotjon domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiy” asarida keltirilgan ayrim oykonimlar va ularning yorilishi haqida bahs yuritadi.

Kalit so‘zlar: tazkira, Qatag‘on dahasi, Marg‘ilon dahasi, Sarmozor dahasi, Xo‘jand dahasi.

Go‘zal Jo‘rayeva. Firoqiy devoni: tuzilishi va tarkibi…….….....496
Nuriddin Rahmonov. Xon va adabiy ta’sir masalasi.....502
Lochinbek Ahmadaliyev. “Tazkirai Qayyumiy”ning adabiy manba sifatidagi ahamiyati.....509
Nilufar Javharova. Ashurali Zohiriy – serqirra ijodkor.....514

TA’LIM TIZIMIDA QO‘QON ADABIY MUHITI VAKILLARI ADABIY MEROSINI O‘QITISH MUAMMOLARI

Maqsuda Sariboyeva, Shahnozaxon Xojimurodova. Qo‘qon adabiy muhitida Nodiraning o‘rni va o‘qitish muammolari…….....519
Mirhojiddin Jamoliddinov, Gulbahor Mo‘ydinova. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishdagi muammo va yechimlar.....523
Сайёра Алимсаидова. Теоретические подходы к взаимосвязанному изучению языка и культуры (на примере истории Коканда)……..526
Barno Abdurahmonova. O‘quvchilarni g‘azal matni ustida ishlashga o‘rgatish.....530
Yo‘ldosh Rahmatov. Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida maqol va badiiy tafakkur masalasi.....535
Azimjon Davronov. Hamza maktublarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati...541
Sofiya Usmonova. Qo‘qon xonligi davrida madrasalar va machitlar nomlari….544
Surayyo Ergasheva, Gulnoza Abdusalomova. Umumiy o‘rta ta’lim adabiyot darslarida Muqimiy ijodini o‘rganish……549
Dildora Erkaboyeva, Gulnoza Aliyeva. Adabiyot darsliklarida Qo‘qon adabiy muhiti vakillarining o‘rni.....552
Muqaddas Oqmamatova. Amiriy asarlari tarjimasida milliy-madaniy frazeologik birliklarning adekvatlik masalalari (ingliz tiliga tarjimasi misolida).....555
Sofiya Usmonova, Gulira’no Murodova. Po‘lotjon domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiy” dagi ayrim oykonimlar xususida……...558
Zumrad Teshaboyeva. Hayot haqiqatining badiiy aksi……..561
Элнура Турдиалиева. Трансформационный метод при переводе художественного текста……..564
Rustam Husanov. O‘zbek xalq an’analari va musiqa san’ati tarixi…….569
Gulzoda Ishbayeva. Ingliz tili ta'limida Furqat ijodi tarjimalarining o‘ziga xos jihatlarini o‘rgatish……572
Dilrabo Meliqo‘ziyeva. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirishda Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodidan foydalanish (Gulxaniy “Zarbulmasal” asari misolida)……574
Lochinbek Ahmadaliyev. XXI asrning yangi tazkirasi……...577
Sadoqat Shamsiddinova. Amiriy “Devon”idagi arabizmlarning leksik-semantik xususiyatlari……...585
Oyzoda Yahyoxonova. “Zarbulmasal” asarini o‘qitishning zamonaviy pedagogik usullari haqida……...588